

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR-**

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

**5-2025
IJTIMOIY
FANLAR**

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

IQTISODIYOT

H.V.Ivонина, Ф.Ч.Бойко

Сравнительный анализ моделей организационного туризма в Европе, СНГ и Азии: институциональные уроки для Узбекистана 5

Е.В.Голышева, Ш.Г.Хошимов

«Зигзагообразное» планирование туристских маршрутов как инструмент пространственного развития и устойчивости туризма (на примере Ферганской области) 13

FALSAFA

S.A.Muradov

Hind o'lkasida tasavvuf ta'limotining rivojlanish tendensiyasi 22

L.S.Yuldasheva

Abu Ali ibn Sinoning "Urjuza" she'riy dostonining falsafiy tahlili 26

M.T.Xidirov

Postnoklassik ilmiy tafakkur shakllanishida bilim va faoliyat dialektikasining o'rni 30

D.I.Saydullayeva

Axloqiy qadriyatlar va yoshlar tarbiyasi 35

F.A.Yuldashev

Raqamli jamiyat sharoitida shaxs ehtiyoj-manfaatlari va ekzistensial jarayonlar: ijtimoiy-falsafiy tahlil 38

R.Orziboyev

Yoshlar g'oyaviy birdamlik fazilatlarini yuksaltirish integratsiyasida musiqiy merosning o'rni 43

C.Бусала

Изучение искусственного интеллекта через призму философского пространства и времени 47

Y.A.Xudoyqulov

Zamonaviy jamiyatda harbiy fanni yuksaltirishga doir ilmiy-amaliy tadqiqotlar metodologiyasi 51

R.S.Raupova, N.Rajabova

Imom ash-Shotibiyning qiroat ilmidagi xizmatlari va uning ilmiy merosi 55

E.I.Tursunaliyeva

Ijtimoiy davlat fenomeni: nazariy yondashuvlar va xalqaro tajriba 58

G.A.Raximova

Milliy madaniyatni rivojlantirish va saqlab qolishning ijtimoiy omillari 62

M.Z.Jumayeva

Globalashuv sharoitida yangi O'zbekiston: ulkan maqsadlar va zamonaviy jamiyat taraqqiyotining muhim xususiyatlari 67

A.A.Qambarov

Is'hoqxon to'ra ibrat ilmiy merosining falsafiy tahlili 72

B.S.Ganiyev, I.B.Xolmatov

Jamiyatimiz yangi taraqqiyot bosqichida sportni – ijtimoiy fenomen sifatida qaror topishining ijtimoiy-falsafiy xususiyatlari 77

L.E.Tursunova

Tilab Mahmudovning milliy estetik merosga qo'shgan hissasi 83

A.A.Mo'ydinov

Ma'naviy amaliyot kategoriyasining ijtimoiy-falsafiy talqini 87

M.K.Soipova

Fazl ibn Ahmad qarashlarida axloqiy masalalarning falsafiy tahlili 93

M.K.Soipova

Yangi O'zbekistonda yoshlarni komillikka erishishida Fazl ibn Ahmad merosining o'rni 96

G.A.Qamariddinova

"Rashahotu aynil-hayot" asarida insonparvarlik va ma'rifatli jamiyat konsepsiyasi 100



UO'K: 297.4(540)

HIND O'LKASIDA TASAVVUF TA'LIMOTINING RIVOJLANISH TENDENSIYASI

ТЕНДЕНЦИЯ РАЗВИТИЯ СУФИЙСКОГО УЧЕНИЯ В ИНДИИ

THE TREND OF DEVELOPMENT OF SUFI TEACHINGS IN INDIA

Muradov Sanjar Aslonovich 

Buxoro davlat texnika universiteti "Ijtimoiy fanlar va jismoniy madaniyat" kafedrası dotsenti

Annotatsiya

Ushbu maqolada tasavvuf ta'limotining Hindiston hududida shakllanishi va rivojlanish bosqichlari chuqur tahlil qilingan. Tasavvuf vakillari bu yurtga kelgach, mahalliy aholining turmush tarziga moslashib, ular bilan bevosita muloqotga kirishdilar. Natijada sufiylarning odob-axloq, ma'naviy poklik va ilohiy muhabbatga asoslangan qarashlari hind jamiyati orasida tez tarqaldi. Shuningdek, mahalliy aholining diniy-ma'naviy qarashlari bilan umumiylik topganligi bois, ular o'z yo'nalishlariga moyil insonlarni topishda qiyinchilik sezmadilar. Hindiston tasavvuf tarixida to'rtta tariqat alohida o'rin egalladi: Chishtiya, Qodiriya, Suxravardiya va Naqshbandiya. Bu tariqatlar nafaqat diniy-murshidlik faoliyatida, balki ijtimoiy hayotda ham muhim ta'sir ko'rsatgan.

Аннотация

В данной статье всесторонне исследованы этапы формирования и развития суфийского учения на территории Индии. Представители суфизма, прибывшие в эту страну, сумели приспособиться к образу жизни местного населения и вступили с ним в непосредственный диалог. В результате идеи суфиев, основанные на нравственности, духовной чистоте и божественной любви, быстро распространились среди индийского общества. Более того, благодаря наличию общих черт с религиозно-духовными воззрениями местных жителей, суфиям было сравнительно легко находить людей, склонных к их направлению. В истории индийского суфизма особое место заняли четыре тарикаты: Чистия, Кадирия, Сухравардия и Накшбандия. Эти тарикаты оказали значительное влияние не только в религиозно-духовной сфере, но и в общественной жизни.

Abstract

This article provides an in-depth analysis of the stages of formation and development of Sufi teachings in the territory of India. When the representatives of Sufism arrived in this land, they adapted to the lifestyle of the local population and engaged in direct interaction with them. As a result, the views of the Sufis, which were based on morality, spiritual purity, and divine love, spread rapidly among Indian society. Moreover, since these ideas shared certain commonalities with the religious and spiritual outlook of the local people, the Sufis found it relatively easy to attract individuals inclined towards their path. In the history of Sufism in India, four Sufi orders occupied a particularly significant place: the Chishti, Qadiri, Suhrawardi, and Naqshbandi. These orders exerted a considerable influence not only in religious and spiritual guidance but also in the broader social life of the community.

Kalit so'zlar: Tasavvuf, sufiylik, tariqat, Chishti, Chishtiya tariqati, Qodiriya, Qodiriya tariqati, Suxravardiya, Suxravardiya tariqati, Naqshbandiya, avliyo siyrati, zikr, tasavvuf va ijtimoiy adolat, tariqat marosimlari.

Ключевые слова: Тасаввуф, суфизм, тарикат, Чистия, тарикат Чистия, Кадирия, тарикат Кадирия, Сухравардия, тарикат Сухравардия, Накшбандия, житие святых (hagiография, аелия сиряги), зикр, тасаввуф и социальная справедливость, обряды тариката.

Key words: Sufism, mysticism, tariqa (Sufi order), Chishti, Chishtiya order, Qadiriyya, Qadiriyya order, Suhrawardiyya, Suhrawardiyya order, Naqshbandiyya, hagiography (lives of saints), dhikr (remembrance of God), Sufism and social justice, rituals of the tariqa.

KIRISH

Hindistonga tasavvuf ta'limoti musulmonlar bilan kirdi. X asrda tasavvuf ta'limotining yirik vakili Mansur Xalloy (v. 922 y.) Hindistonning mahalliy aholisiga Allohni tanishtirish maqsadida Sind vohasiga kelgan. Mahalliy xalqning Mansur Xalloyga bo'lgan muhabbatini ular tomonidan yaratilgan nazm va navolarida ko'rish mumkin. Hatto Mansur Xalloy umrini oxirini qamoqda o'tkazib, so'ngra qatl etilgani hind tasavvuf vakillari uchun o'ziga xos ibrat bo'lgan va ular ham o'z g'oyalarini himoya qilgani evaziga o'limga ham tayyor bo'lishgan.

Tasavvuf vakillari mahalliy aholi bilan faol muloqot qilishgani bois, mahalliy hind aholi o'rtasida o'z yo'nalishlariga mos insonlarni topishi oson bo'ldi. O'z navbatida, ular o'rta asr diniy islohotchilik harakatlariga katta ta'sir o'tkazishdi. Tasavvuf tariqatlaridan quyidagi to'rttasi alohida

FALSAFA

o'ringa ega bo'lishdi: Chishtiya, Qodiriya, Suxravardiya, Naqshbandiya. Ushbu tariqatlar nufuzli bo'lgan valiyilar bilan mashhur bo'lgan.

Hindistonga Chishtiya tariqatini shakllanishi Muiniddin Chishtiylga (1143-1236) borib taqaladi. U G'aribi Navaz ("Kambag'allar saxovatchisi") nomi bilan mashhurlikka erishdi. Asl kelib chiqishi buxorolik bo'lgan shayx Xo'ja Nizomiddin tomonidan esa keng yoyilgan. Xasan Sijziy Dexlaviy tomonidan to'plangan shayx Xo'ja Nizomiddin maktublaridan iborat "Favaid al fuad" asarida keltirishicha, Xo'ja Nizomiddin Hindistonda shayx Bobo Fariduddin Ganjiyning muridi sifatida to'rtinchi yuksak ma'naviy rahbar bo'ladi. Shayx Nizomiddin o'z muridlarini Allohga bo'lgan muhabbat, sadoqat, itoatli bo'lish, insoniy xususiyatlarni tarbiyalash va bashariyatga yurakdan xizmat qilishday ulug' ishlarga yo'naltirgan.

Hind o'lkasida Qodiriya tariqati XVI asrda tarqaldi. Muhammad G'avso (v. 1517 y) Abdulqodir Giloniy avlodidan ekanligini aytib, ushbu tariqat tarafdorlarini ko'paytirishga harakat qildi. Biroq, Abulfazl ibn Muborak "Ayn il Akbar" nomli asarida ushbu tariqat haqida bayon qilmagan. Demak, Qodiriya ta'limoti Hindistonda bir asr keyin ya'ni Sulton Baxu faoliyati bilan rivojlanadi. U 40 ga yaqin tasavvuf haqidagi kitoblar yozgan hamda Abdulqodir Giloniyning ma'naviy ustozlari sifatida juda qadrlagan. Sulton Baxu ta'limotida qalb daraxtiga qiyoslangan, unga hayot va harakatni muhabbatning shamoli beradi, ozuqa esa zikrning suvi, hamda e'tiqod timsoli bo'lgan ikki so'z daraxtni ulg'aytiradi.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Suxravardiya tariqati Hindistonga Shixobiddin Umar Suxravardiyning etuk muridlari tomonidan olib kirildi. Ular ichida Buxammadin Zakariyo Mo'ltoniyning o'rni beqiyos. Uning shogirdlaridan biri asl kelib chiqishi Buxorodan bo'lgan Jalol Buxoriy esa ustozining ta'limotlaridan ruhlanib jaloliya yo'nalishini ochdi. Suxravardiya tariqatining shaxobchalari Eronda jamoliya, Kichik Osiyoda zayniya va xilvatiya, Afg'onistonda ravshaniya nomlari bilan keng yoyildi. Biroq aynan Hindistonda bu tariqat vakillari ko'pchilikni tashkil qilgan. Demak, XIII asrda Dexli sultonligi shakllanayotgan davrda ushbu tariqat o'zining eng yuqori cho'qqisiga ko'tarildi. Ushbu tariqatning Hindistonda keng tarqalishida Jaloliddin Tabriziyning (v. 1244 y) ham katta o'rni bor. Shayx Tabriziy harakatlari natijasida ko'pgina buddaviylik va hinduiylik dini vakillari islom dinini qabul qilishdi.

Tasavvuf ta'limotining Hindistonda tarqalishi va taraqqiyoti jarayoni Sharq va Janubiy Osiyo madaniyatlari o'zaro ta'sirining yorqin namunasidir. Islom dini bu hududga kirib kelgan davrdan boshlab, sufiylar diniy va ijtimoiy hayotda muhim o'rin egalladi. Ularning asosiy xususiyati - mahalliy madaniyat va diniy an'analarni to'g'ridan-to'g'ri inkor etmasdan, balki ular bilan murosali aloqalar o'rnatish orqali ta'sir ko'rsatganliklarida namoyon bo'ladi. Shu sababdan, Hind tasavvufiy maktablari o'ziga xos "sintez jarayoni" asosida shakllandi.

Birinchi tendensiya - moslashuvchanlik. Chishtiya tariqati vakillari mahalliy aholining ruhiy-ma'naviy qarashlari, ayniqsa hinduizm va buddizmga mavjud bo'lgan ruhiy poklanish, zikrga o'xshash meditatsiya shakllari bilan umumiylik topdilar. Bu esa tasavvuf g'oyalarining keng omma orasida qabul qilinishini tezlashtirdi.

Ikkinchi tendensiya - ijtimoiy faoliyatning kuchayishi. Sufiy shayxlar jamiyatning kambag'al qatlamlariga yordam ko'rsatish, odilona mehnat qilish, bag'rikenglikni targ'ib etish orqali Hindistonning ko'p millatli va ko'p dinli muhitida ijtimoiy barqarorlikni mustahkamlashga xizmat qildilar.

Uchinchi tendensiya - tariqatlararo ta'sir va raqobat. Chishtiya, Qodiriya, Suxravardiya va Naqshbandiya tariqatlari bir-biri bilan muloqotda bo'lish bilan birga, Hind jamiyatidagi ijtimoiy muammolar echimida o'ziga xos yo'nalishlarni ilgari surdilar. Masalan, Chishtiylar xalq orasida keng targ'ibot ishlari olib borgan bo'lsa, Naqshbandiylar ko'proq siyosiy va intellektual doiralar bilan aloqada bo'lganlar.

To'rtinchi tendensiya - madaniy uyg'unlashuv. Sufiylar orqali Hind san'ati, musiqa va adabiyotida yangi oqimlar yuzaga keldi. Qavvoliy, marsiya va zikr marosimlari hind musiqa an'analari bilan qo'shib, noyob madaniy fenomenni yaratdi. Shu tariqa tasavvuf nafaqat diniy-falsafiy ta'limot, balki keng ko'lamli madaniy harakat sifatida ham shakllandi.

Hindistonda tasavvuf tariqatlarining rivojlanishiga bir qator omillar ta'sir qilgan. Ayniqsa, xonaqohlarning qurilishi tasavvuf ta'limotining mahalliy xalq orasida kengroq tarqalishiga olib keldi. Xonaqoh odatda so'fiylar tomonidan boshqariladigan turar joy, jamoat markazi, yotoqxona sifatida faoliyat olib borgan. Xonaqohlar, shuningdek, Jamoat uylari, katta yig'ilish zallari sifatida ham

tanilgan. Tuzilishi jihatidan xonaqohlar bitta katta xona bo'lishi yoki qo'shimcha yashash joyiga ega bo'lishi mumkin. Garchi ba'zi xonaqohlar davlat mablag'lari va homiyligidan mustaqil bo'lishgan bo'lsa-da, xizmatlarini davom ettirish uchun vaqf va xayr-ehsonlar asosida rivojlangan. Dastlab, xonaqohlarda ustoz o'z shogirdlariga ta'lim va tarbiya bergan. Muridlar ibodatlarini amalga oshirishgan, islom manbalarini o'qib yod olishgan. Hindistonda ayniqsa uch xildagi manbalar mutolaa qilingan:

- agiografik qaydlar;
- ustozlar suhbatlari;
- valiyalar maktubi.

Xonaqohlarning yana bir muhim vazifasi boshpana sifatida namoyon bo'lgan. Ushbu inshootlarning aksariyati quyi kastalarda, qishloq joylarda va hind mahallalarida qurilgan. Ayniqsa, Chishtiy tariqati so'fiylari kamtarin, mehmondo'st va saxiylikda namuna bo'lib, xonaqohlarida barcha tabaqalarni qabul qilishgan. "Mehmonlarni kutib olish" siyosati asosida ma'naviy yo'l-yo'riq, psixologik yordam va maslahatlarni taklif qilgan holda xonaqohlar barcha odamlar uchun bepul va ochiq bo'lgan. Kastaning ma'naviy och va tushkun a'zolari bepul oshxonalarda ovqatlanib, ularga ta'lim ham berilgan. Tabaqalashgan kasta tizimlari doirasida teng huquqli jamoalarni yaratish orqali so'fiylar muhabbat, diniy bag'rikenglik va hamjihatlik haqidagi ta'limotlarini muvaffaqiyatli tarqatdilar.

XIII asrda Hindistonda Dexli sultonligi tashkil topadi. 1206 yil Muhammad Guriyning o'limidan so'ng uning noibi Qutbiddin Oyboq Gang vodiysi va Panjobda hokimiyatga qo'lga oladi va mustaqil sultonlikni tashkil qiladi. Aynan shu davrdan boshlab, Dexli sultonligi tarix sahnasida paydo bo'ladi. Sultonlar tasavvuf vakillariga nihoyatda iliq munosabatda bo'lgan. Hatto ba'zi tariqat murshidlari sultonlar bilan doimiy muloqot qilib turgan. Xonaqohlarga g'amxo'rlik qilib ularning faoliyat olib borishiga Dexli sultonligi katta ahamiyat berdi. Ushbu davrda urdu tili shakllanish davri bo'ldi. Hind, arab va fors so'zlari integratsiyalashuvi yangi tilning jamiyat hayotiga shiddat bilan kirib kelishiga zamin yaratdi. Islom ta'limoti urdu tili rivojlanishiga asos bo'ldi.

Tasavvuf ta'limoti Hindistondagi boshqa diniy konfessiyalar bilan murosa va o'ziga xos muloqotda bo'lishgan. Bu borada braxmanlik unsurlari bo'lgan tantrizmda ham g'oyalar ustozlar orqali yuqori obro'ga ega bo'lgan. Nazariy jihatdan hind sufiylari ikki qismga bo'lingan: birinchisi mutloq nedualizmga (vujudiya), qolganlarida ba'zi chegaralarga (shuxudiya) ishongan. Birinchisi barcha narsa Alloh bilan bir ikkinchisi bo'lishi mumkin emas deb hisoblasa, ikkinchisi barcha narsa Allohdan ekanligini e'tirof etishgan. Tasavvuf vakillari diniy bilimni (ma'rifat) belgilangan qoidalar(shariat)dan yuqorida deb bilishgan. Ular ko'p diniy tashkilotlar va ta'lim muassasalari qurib, pir, murshid va shayxlar muridlarni o'zini anglash (tariqat) yo'lida ta'lim berishdi.

XIV asrda hind diyorida tasavvuf to'liq ildiz otdi. U hukmron bo'lgan tantrizim va saxadja g'oyalari bilan birlashdi. Tasavvuf ularning qalblaridan chuqur joy olganligini Bengaliyadagi baullar misolida ko'rish mumkin. Ularda bir tarafdin vayshnavizmni, ikkinchi tomondan tasavvufdagi samani birlashtirgan.

So'fiylarning diniy mashg'ulotlarda murshidning muhimligi hamda inson tanasi koinotning mikrokosmosi haqidagi g'oyalari tantrizim, saxadja, aullar, baullar va boshqa liberal qarashga ega bo'lgan o'rta asr diniy yo'nalishlar tomonidan e'tirof etildi. Baullar qo'shiqlarida o'rin olgan inson qalbi haqidagi ta'limot tantrizim, saxadja va tasavvufdagi oliy haqiqat haqidagi tasavvurni namoyon qiladi. Tasavvufdagi muhabbatdan hosil bo'lgan ijod haqida, muhabbat tufayli paydo bo'lgan olam haqida, inson tabiatining ikkixilligi, ya'ni tugal va doimiy, insoniy va ilohiylik haqida, Allohga bo'lgan insonning muhabbatini haqidagi g'oyalar o'rta asr hind diniy g'oyalarga o'xshaydi.

XULOSA

Akbar davrida tasavvuf vakillariga bo'lgan munosabat o'zgacha bo'lgan. Bu davrda tasavvuf vakillari muxim qatlam sifatida o'z o'rniga ega bo'lgan. Biroq, o'sha vaqtda tasavvuf noto'g'ri yo'ldan borgan sufiylar ta'siri ostida boshqa shaklga kirib, musulmon ommasi nufuzining tushishiga olib keldi. O'sha davrning musulmon mistik tafakkuri asosan Ibn al-Arabiyning panteistik g'oyalari atrofida aylangan. Ko'p jamoalar orasida avliyolarga nisbat berilgan keramolatlarga ishonch chuqur ildiz otgan va ko'p hollarda haddan oshgan edi. Ma'naviy kuchlarni rivojlantirishga qaratilgan ko'plab islomga xilof usullar tasavvufning o'ziga ham kirib kelgan edi. Ba'zi tasavvuf ahlilari shariat ahkomlarini barchaga majburiy deb bilishni inkor etguncha borib, shariatning o'zini ham faqat tashqi va yuzaki narsa, deb hisoblaganlar. Ko'pchilik so'fiylar musiqali yig'ilishlar (sama') o'tkazar, ruhiy raqslarda (raqs) ishtirok etar va Payg'ambar alayhissalomning tavalludlarini nishonlar edilar. Ular Rasululloh sollallohu alayhi vasallamning sunnatlariga e'tibor bermas, ularga nisbatan befarq

FALSAFA

munosabatda bo'lar edilar. Ular ruhiy mastlik (sukr) holatini ongli va aql bilan nazorat qilinadigan holat (sahv)dan yuqori deb bilib, uni ma'naviy kamolning yuqori bosqichi sifatida ko'rar edilar. Ular farz va sunnat ibodatlaridan ko'ra zikr va fikr (tafakkur va ruhiy mulohaza)ga ko'proq ahamiyat qaratib, arbainat deb atalgan qirq kunlik nafl ibodatlarga asoslangan maxsus ruhiy mashqlarda ishtirok etar, jamoat bilan o'qiladigan namozlarni, hatto haftalik juma namozlarini ham ko'pincha e'tiborsiz qoldirar edilar. Ulardan ba'zilar namozni kamsitib, uni tanqid ostiga olsalar, boshqalari esa qiyomatni sufiy tajribasi bo'lmish fano holatiga tenglashtirib, hisob-kitob va jazoni inkor etganlar. Ba'zi so'fiylar go'zal chehralarga qarash va musiqa yoki shirin ovozlarni eshitishni yaxshi ko'rar edilar, chunki bu narsalarni ular Abadiy Go'zallik - ya'ni Allohning go'zalligi namoyon bo'lgan holatlar deb qabul qilganlar.

Hind o'lkasida tasavvufning rivojlanish tendensiyalari uning mahalliy ijtimoiy-madaniy muhitga moslashuvi, ijtimoiy adolat tamoyillarini ilgari surishi, tariqatlarning faol muloqoti hamda madaniy uyg'unlashuv jarayonlarida yaqqol namoyon bo'ladi. Bu esa tasavvufni Hindiston tarixida faqat diniy emas, balki keng qamrovli ma'naviy va ijtimoiy hodisa sifatida ko'rsatadi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Анне-Мари Шиммель: Мир исламского мистицизма. – Москва: АлейтаЭнигма, 2000. – 414 с.
2. Махмуд Ас'яд Жўшон. Тасаввуф ва нафс тарбияси. – Тошкент: Чўлпон, 1998. – 88 б.
3. Мактубот Имом Раббони. Икки томлик. 1-том /Р.Тура тахрири остида. – Истанбул:Yasin Yayinevi, 2006. – 396 б.
4. Юлдашходжаев Х. Тариқатчиликнинг замонавий кўринишлари. –Тошкент: ТИУ, 2010. – 80 б.
5. Анке фон Кюгельген. Расцвет Нақшбандия-Мужадидия в средней Трансоксании с XVIII – до начала XIX в.в.: опыт детективного расследования. /Суфизм в Центральной Азии (зарубежные исследования). Санкт-Петербург: Филологический факультет СПбГУ, 2001. – 394 с.
6. Мир исламского мистицизма / пер. с англ. Н. И. Пригариной, А. С. Рапо порт. 2-е изд., испр. и доп. - М.: ООО «Садра», 2012. С.79.
7. Abul fazl Allami. Ain I akbari. Translated from the original persian Colonel H.S. Jarrett. Vol II. Baptist mission press. Calcutta. 1891. 595 pages.
8. Хазраткулов М. Тасаввуф. Душанбе:Ирфон,1988. С.94
9. Алви, Саджида. Взгляды на Индию Великих Моголов: правители, историки, улемы и суфии. Карачи: Издательство Оксфордского университета. С.32.
11. Bhattacharyya N.N. History of the tantric religion. An historical, ritualistic and philosophical study. New Delhi: Manohar, 2005. P. 285 – 289
12. Muhammad 'Abdul Haq Ansari, Sufism and Shari'ah, London, 1986, p. 21.